JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI





# JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR - OKTABR*
*(DASTLABKI MA’LUMOT)*



# Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-oktabr oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8890,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,0 % ni tashkil etdi.

| 1,7% | 94,0% | 3,5% | 0,8% |
|---|---|---|---|
| **B** | **C** | **D** | **E** |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

| | *2021- yil yanvar-oktabr* | *2022- yil yanvar-oktabr* |
|---|---|---|
| B | 47,5 % | 35,8 % |
| C | 118,6 % | 110,5 % |
| D | 122,3 % | 117,3 % |
| E | 100,5 % | 86,7 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 10,5 % ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 17,3 % ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**Yanvar-oktabr**

B

| | | |
|---|---|---|
| 2022- yil | 151,6 mlrd. so‘m | 35,8% |
| 2021- yil | 95,3 mlrd. so‘m | 47,5 % |
| 2020- yil | 108,2 mlrd. so‘m | 77,4 % |

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 151,6 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,7 % ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**

| | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|
| B | 1,5 % | 1,7 % |

Yanvar-oktabr

## Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

| Tumanlar nomi | 2021- yil yanvar-oktabr | 2022- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| G‘allaorol tumani | 15 263,2 | 17 364,5 | 2 101,3 |
| Sharof Rashidov tumani | 52 584,8 | 46 965,9 | -5 618,9 |
| Zomin tumani | 16 125,8 | 7 269,5 | -8 856,3 |
| Jizzax shahri | 57 271,2 | 60 890,8 | 3 619,6 |
| Zafarobod tumani | 14 574,7 | 10 363,5 | - 4 211,2 |

*Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 40,2 % Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 30,9 % ni va G‘allaorol tumani 11,5 % ni tashkil etdi.*

47,5 %

2021- yil

35,8 %

2022- yil

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022- yilning yanvar-oktabr oyilarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8358,9 mlrd.so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,0 % ini tashkil etdi.*

**2021-yil yanvar-oktabr** — 92,9 %

**2022-yil yanvar-oktabr** — 94,0 %

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1% o‘rta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 25,1 % (15,8 %) ni, o‘rta-quyi texnologiyali – 21,3 % (25,3 %) va quyi texnologiyalisi - 47,5 % ( 51,8 %)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 25,9 % ( 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 239,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,2 % ( 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 128,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 32,3 % ( 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,5 % ( 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,6 % ( 2021- yilning yanvar –oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 74,6 %)ni tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

*O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

**Paxta tolasi**




**Paxta chigiti**




**Paxta linti**




**O'simlik yog'i (tozalangan)**




**Trikotaj polotnolar**




**Yumshoq bug'doy va spelta uni**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-oktabr | 2022- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Paxta tolasi, t. | 38 059,9 | 35 491,9 | -2 568,0 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t. | 52 660,1 | 46 882,6 | -5 777,5 |
| Paxta chigiti, t. | 58 860,3 | 58 505,9 | - 354,4 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), t. | 3 511,6 | 7 414,4 | 3 902,8 |
| Paxta linti, t. | 3 157,9 | 4 320,1 | 1 162,2 |
| Trikotaj polotnolar, t. | 2 085,0 | 1 569,0 | -516,0 |

*2022- yilning yanvar-oktabr oyilar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 46,9 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni ( 11,0 % kamaygan), 35,5 ming tonna paxta tolasi ( 6,7 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 58,5 ming tonna paxta chigiti 0,6 % ga ) kamaygani kuzatildi.*

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**

**89,0 %**

**Paxta tolasi, t.**

**93,3 %**

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 90,9 % ga tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylar yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,2 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 128,4 % o‘sish sur’atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 103,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 18,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 131,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylar yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 15,7 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 78,7 % ga o‘sish sur’atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 1391,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylar yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1101,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 71,9 % ni tashkil etgan. 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 59,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 10,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 128,1 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 102,1 % tashkil etgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 2545,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 115,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6 %, fizik hajm indeksi 100,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 321,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 124,7 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 90,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 51,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Elektr jihozlari ishlab chiqarish




*2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 92,8 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 % ni, fizik hajm indeksi 93,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 349,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 127,4 % ga oshgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi 72,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 272,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 308,5 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 3,5 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 17,3 % ga o‘sishi kuzatildi.*




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-oktabr | 2022- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 215 216,4 | 250 595,7 | 35 379,3 |
| Boshqa bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi),ming gkal | 7,6 | 3,3 | - 4,3 |
| Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 62 240,1 | 57 927,6 | - 4 312,5 |

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

*Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 71,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.*




## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-oktabr | 2022- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,** | 60 221,7 | 51 527,5 | -8 694,2 |
| **Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm** | 18 220,5 | 19 831,9 | 1 611,4 |

*O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 15,6 % ga, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 6,6 % ga pasayishi kuzatildi.*

# Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4262,1 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan 122,0 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 47,9 % ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari

| 2021-yil yanvar-oktabr | 2022-yil yanvar-oktabr |
|---|---|
| 22,5% | 19,9% |

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

| 2021-yil yanvar-oktabr | 2022-yil yanvar-oktabr |
|---|---|
| 77,5% | 80,1% |

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 19,9 % (2021- yil yanvar-oktabr oylarida 22,5 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib 41,0 % ni va Paxtakor tumani 14,4 % ni, Sharof Rashidov tumani 8,6 % ni hamda Zarbdor tumani 9,0 % ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, oziq-ovqat iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Jizzax shahrida (132,6 %), Sharof Rashidov tumanida (158,3 %) hamda Paxtakor tumanida (106,2 %), qayd etildi.*

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 25,9 % shuningdek, G‘allaorol tumani 43,1 %, ni, hamda Paxtakor tumani 6,9 % ni tashkil etdi.*




*2106,1 mlrd. so‘m*
*2020- yil yanvar-oktabr*

*2733,7 mlrd. so‘m*
*2021- yil yanvar-oktabr*

*4262,1 mlrd. so‘m*
*2022- yil yanvar-oktabr*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi



## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 22,1 % shuningdek, G‘allaorol tumani 52,8 %, Sharof Rashidov tumani 5,7 % ni tashkil etdi.*

**1402,8** mlrd. so‘m
*2020- yil yanvar-oktabr*

**2031,0** mlrd. so‘m
*2021- yil yanvar-oktabr*

**3413,1** mlrd. so‘m
*2022- yil yanvar-oktabr*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2020- yil 104,9 %

02 2021- yil 125,6 %

04 2022- yil 126,0 %



## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 41,0 % ni, shuningdek, Sharof Rashidov tumani 8,6 % ni, Paxtakor tumani esa 14,4 % ni tashkil etdi.*




**636,9** *mlrd. so‘m*
*2020- yil yanvar-oktabr*

**642,6** *mlrd. so‘m*
*2021- yil yanvar-oktabr*

**849,0** *mlrd. so‘m*
*2022- yil yanvar-oktabr*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2020- yil 106,4 %

02 2021- yil 100,4 %

04 2022- yil 108,1 %

## Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 34,7 % ni, shuningdek, G‘allaorol tumani 21,7 % ni, Zafarobod tumani esa 10,6 % ni tashkil etdi.*

**Jizzax viloyati**

**2020- yil** 4496,4 mlrd. so‘m

**2021- yil** 6367,5 mlrd. so‘m

**2022- yil** 8890,4 mlrd. so‘m



**2020- yil** 104,6 %

**2021- yil** 115,7 %

**2022- yil** 107,4 %



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (16340,5 ming so‘m), Zafarobod (18187,2 ming so‘m) tumanida hamda G‘allaorol ( 10690,8 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan ( 6110,1 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*




### Jizzax viloyati

2020- yil
3228,7 ming. so‘m

2021- yil
4475,5 ming. so‘m

2022- yil
6110,1 ming. so‘m



01 2020- yil 102,4 %

02 2021- yil 111,4 %

04 2022- yil 105,0 %

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 526,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 50,9 % ni tashkil etdi.*




### Jizzax viloyati

**2020- yil**
2809,1 mlrd. so‘m

**2021- yil**
3064,0 mlrd. so‘m

**2022- yil**
4526,7 mlrd. so‘m



**2020- yil** 62,5 %

**2021- yil** 48,1 %

**2022- yil** 50,9 %

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 929,2 ming so‘m bo‘lgani holda, Jizzax shahrida – 5 846,7 ming so‘mni, Paxtakor tumanida – 3 779,1 ming so‘mni, G‘allaorol tumanida –10 182,0 ming so‘mni tashkil etdi.*

**Jizzax viloyati**

**2020- yil** — 1512,4 ming. so‘m

**2021- yil** — 1921,4 ming. so‘m

**2022- yil** — 2929,2 ming. so‘m



**2020- yil** — 102,7 %

**2021- yil** — 115,2 %

**2022- yil** — 119,3 %



# Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*Bugungi kunda viloyatda 4019 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1178 tasi ( faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 29,3 % i ) Jizzax shahriga, 692 tasi (17,2 %) Sharof Rashidov tumaniga, 412 tasi ( 10,3 %) G‘allaorol tumaniga, 338 tasi ( 8,4 %) Zomin tumaniga va 226 tasi (5,6 %) Zarbdor tumaniga to‘gri kelmoqda.*




## Jami yangi tashkil etilgan

**2020-yil** — 774 dona

**2021- yil** — 759 dona

**2022- yil** — 696 dona



## Jami faoliyat yuritayotgan

**2020- yil** — 3 395 dona

**2021- yil** — 3 833 dona

**2022- yil** — 4 019 dona